



## JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI

Valiyeva Sayyora Xushbaqovna

"INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE" instituti PhD dotsenti

email: [Sayyora3001@gmail.com](mailto:Sayyora3001@gmail.com)

| ARTICLE INFORMATION                                                                                                                              | ABSTRACT                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>Volume: 1<br/>Issue: 9<br/>DOI: <a href="https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss9/a17">https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss9/a17</a></p> | <p>Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tarkibi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mexanizmini takomillashtirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari, jumladan, Fransiya soliq tizimida soliq to'lovchilar daromadi kategoriyalari, AQSH soliq tizimi, Yaponiyada jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari, rivojlangan mamlakatlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining budjet daromadlari tarkibida yetakchi o'rin egallashidagi sabablari ko'rib o'tilgan. Shuningdek, iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan va ilmiy qarashlari ochib berilgan. Mavzu doirasida tavsiyalar ishlab chiqilgan va xulosalar shakllantirilgan.</p> |
| <p><b>KEYWORDS</b></p>                                                                                                                           | <p><i>Soliq Kodeksi, bevosita soliqlar, jismoniy shaxslar daromad solig'i, fiskal, davlat budjeti, proporsional stavka, progressiv, soliq imtiyozlari, mulkiy daromadlar, jami daromadlar, deklaratsiya.</i></p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |

### Kirish (Introduction/Введение)

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida inson qadri va uning farovonligi uchun bu soliq turining ta'siri bevosita muhimdir [1]. Mamlakat fuqorolari farovon turmush-tarzinini belgilashda esa daromad solig'i bazasini to'g'ri aniqlash tartibi soliqlarning adolatlilik prinsiplarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar birinchi navbatda fiskal ya'ni davlat budjeti daromadlarini oshirishga qaratilgan, ikkinchidan, aholining soliqlar xususidagi fikrlarini ijobiy tarzda bo'lishini ta'minlaydi. Yuqoridagi gaplarni mulohaza qilgan holda shuni aytish mumkinki, jismoniy shaxslarning daromadlarini undiriladigan soliqni ta'zimini nazariy jihatdan mukammal ishlab chiqish va ularning samarali va adolatli undirilish mexanizmini puxta ishlab chiqarish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

### Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. (Literature review, Анализ литературы)

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining nazariy asoslari juda ko'plab xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida uzoq yillardan beri o'rganilib kelingan. Xorij iqtisodchi olimlarning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga bergan tariflariga to'xtalib o'tsak, J.M.Keyns, D.Lokk, V.Petti [2] va boshqalarning ilmiy ishlarida keltirilishicha jismoniy shaxslarga progressiv soliq solish eng baland darajada ijtimoiy adolatga erishish va daromadlar o'rtasida farqning kamayishi borasida fikrlar yuritilgan. Ammo shu bilan birga, boshqa xorij olimlari, jumladan R.Masgeyev, I.V.Gorskiy, V.G.Panskov [3] va boshqalar ta'rif berishicha faqat progressiv shkalani joriy etish muammoning yechimini topishda yagona mazmunga ega bo'lgan harakat bo'la olmaydi deb qarshi fikr bildirishgan.

O'zbekiston iqtisodchi olimlari, A.V.Vaxobov va A.S.Jo'raevlarning fikrlariga ko'ra, jahon amaliyoti da ijtimoiy himoyaga

muhtoj bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qo'llanadi, ya'ni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarni bir qismi qayta taqsimlanishi e'tirof etilgan [4].

S.G. Pepelyayev «Soliq – ommaviy hokimiyat subyektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytamaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir» [5].

Yuqoridagi berilgan ta'riflardan xulosa shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyatida soliqlar aholining shaxsiy daromadlaridan davlat budjetiga tushadigan majburiy to'lovlar sifatida qarashlar shakllangan. Iqtisodiy nazariyalardagi asosiy farq qiluvchi tomoni shundan iboratki, ba'zi mualliflar soliqning muntazamligini ta'kidlagan bo'lsa, boshqalari ularning ekvivalentsiz to'lov ekanligini qayd etishgan.

### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы)

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

### Olingan natijalar (Results/Результаты)

Olib borilgan tahlillar natijasida milliy iqtisodiyotda logistika industriyasining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni ta'sirini kelgusi yillardagi istiqbolli o'sish dinamikasi ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, logistika sanoatining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan holatlar hamda ularni bartaraf etish yo'llari asoslab berilgan.

### Tahlillar (Analysis/Анализ)

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ko'pgina mamlakatlardagidan farqli o'laroq O'zbekistonda proporsional stavkada yani 12 foiz qilib belgilangan stavkada undiriladi. Ushbu soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi. Stavka soliq

solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdori ifodalaydi. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlaridan to'lanadigan soliq stavkalarining muntazam ravishda pasaytirilib borishi O'zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi islohatlarning eng e'tiborli jihatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Soliqqa oid huquqiy munosabatlarning vujudga kelishiga bir qator yuridik faktlar sabab bo'ladi. Bunday faktlar ob'ektiv holatlardan ham, munosabat ishtirokchilari hatti harakatidan ham yuzaga kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tarkibi [6] quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- ☐ Mulkiy daromadlar (Soliq Kodeksi 375-modda.)
- ☐ Moddiy nafaridagi daromadlar (Soliq Kodeksi 376-modda.)
- ☐ Boshqa daromadlar (Soliq Kodeksi 377-modda.)
- ☐ Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar (Soliq Kodeksi 371-modda.)
- ☐ Jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar (Soliq Kodeksi 369-modda.)
- ☐ Jami daromad (Soliq Kodeksi 368-modda.)
- ☐ Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash (Soliq Kodeksi 374-modda.)

Yuqorida keltirib o'tilgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlar tarkibi yangilangan soliq kodeksining ellik uchinchi bobida (Jami daromadlar) berilgan bo'lib, bunda asosan eski soliq kodekslariga qaraganda shaffof va aniq bo'lgan soliq bazasi va soliq solish ob'ekti shu bilan birga daromadlar tarkibi ham berilgan.

Chet mamlakatlari soliq tajribalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, jismoniy shaxslar daromad solig'i bazasini aniqlash jarayonida asosiy e'tibor daromad turiga va xarajatlar miqdoriga qaratiladi, qolaversa, aholidan olinadigan daromad solig'i "uzil-kesil olinuvchi" soliq deb qaraladi, shuning uchun uni hisoblab chiqarishda muayyan soliq to'lovchi shaxs ahvolining ba'zi xususiyatlari: bolalari, boqimandalari borligi; o'z uyida yoki ijaraga olingan uyda yashashi; soliq tolovchining sog'lig'i va hokazolar ye'tiborga olinadi. Bundan tashqari, bu soliq soliqqa tortilmaydigan minimumga ega va daromad ko'paygan sayin oshib boradigan progressiv stavkalar bo'yicha undiriladi.

Rivojlangan mamlakatlar daromad soliqqlari tizimlari o'ta darajada murakkab va chalkashdir, buning ustiga, soliqqa tortish qoidalarini, ayniqsa, murakkabligi bilan ajralib turadi, ular ko'pdan-ko'p istisnolar, siyovlar, chegirmalar, imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Qolaversa, jismoniy shaxslar daromad solig'i tarkibidan "Ish haqidagi soliq" alohida tartib olingan.

Masalan, Fransiya soliq tizimini ko'rib chiqsak. Fransiya hukumati daromad solig'idagi o'zining ijtimoiy siyosatini amalga oshirish uchun foydalanadi. Bunda ijtimoiy ist'yemol foizlari yaxshi rivojlanmagan sharoitda daromad solig'i oilani rag'batlantirish, kam mulk egalari yordam berish uchun ishlatiladi. Fransiya yashovchilar soliq bazasi sifatida mamlakatda va chet elda (shartnomalar hisobga olingan holda) olgan hamma daromadlaridan to'laydi. O'ziga xos xususiyati shundan iboratki, soliqni jismoniy shaxsning shaxsiy daromadidan emas, balki oilaning umumiy daromadidan olinadi. Soliq solinadigan bazadan qonunchilikda maxsus belgilangan xarajatlar chiqarib tashlanadi. Jumladan, ovqatlanish uchun belgilangan maxsus yordam kabilar. Ayrim chiqarib tashlashlar quyidagi ba'zi ijtimoiy guruhlariga belgilangan: keksaygan kishilar, nogironlar va h.k.

Davlatimiz soliq tizimida soliq to'lovchilar daromadi 4 kategoriya asosida hisobga olinsa, Fransiya 7 ta kategoriya asosida hisobga olinadi [7]:

1. Yollanib ishlaydiganlar ish haqisi;
  2. Yer daromdlari (Er va imoratni ijaraga berish);
  3. Oborot kapitalidan olinadigan daromad (dividendlar va foizlar);
  4. Qaytadan sotishdan olinadigan daromad (imoratni, qimmatbaho qog'ozlarni);
  5. Aksionerlik jamiyati bo'lmagan korxonalar ishlab chiqarish va savdo faoliyatidan olinadigan daromad;
  6. Tijorat xususiyatiga ega bo'lmagan daromadlar (erkin kasb egalari daromadlari);
  7. Qishloq xo'jalik daromdlari. Soliq bazasini aniqlashda esa umumiy daromadni topish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar chegirib tashlanadi.
- Xususan, yer daromadida umumiy daromaddan quyidagilar chegirib tashlanadi:

1. Imoratni ijaraga berganda 15% va yemi ijaraga berganda 10%;

2. Imoratdan foydalanish harajatlari;

3. Imorat va yerdan olinadigan soliqlar summasi.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, Fransiya soliq tizimida jismoniy shaxslar daromad solig'i bazasini aniqlash tartibi va xususiyatlari birmuncha murakkab va ko'p qirrali, soliq to'lovchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimiga asoslangan.

Rivojlangan mamlakatlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining budjet daromdlari tarkibida yetakchi o'rin egallashi bir qator sabablarga bog'liqdir. Bularning ayrimlari quyidagilardan iborat:

- ☐ jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bevosita daromaddan olinadigan soliq bo'lib, soliq solinadigan daromadning aniq hisob-kitobi deklaratsiyalash orqali amalga oshiriladi;
- ☐ jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliqqa tortilishning klassik tamoyillariga mos keladi;
- ☐ jismoniy shaxslarning daromdlariga solinadigan soliq investitsiyalarga mo'ljallanadigan moliyaviy resurslar hajmiga ta'sir etmaydi;
- ☐ ko'pchilik rivojlangan xorijiy mamlakatlarning budjet daromdlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ulushining ortishi, aholi daromdlarining, ya'ni soliqqa tortiladigan daromadning oshishiga bevosita bog'liq bo'ladi va boshqalar.

Amerika Qo'shma Shtatlarida federal budjetning asosiy qismini tashkil qiluvchi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Barcha daromadlar quyidagilardan tashkil topgan:

- ☐ ish haqi;
- ☐ tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- ☐ nafaqa va pul yordami;
- ☐ qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromadlar va boshqalar.

Mol-mulk va qimmatbaho qog'ozlarni sotishdan kelgan daromadlar maxsus soliq yoki shaxsiy daromad tarkibida soliqqa tortiladi. Bu holda jami yalpi daromaddan xarajatlar chegirib tashlanadi. Bu xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- ☐ kapital aktivlarini sotib olish xarajatlari;
- ☐ yer maydoni;
- ☐ ishlab-chiqarish qurollari va uskunalari;
- ☐ joriy ishlab-chiqarish xarajatlari.

AQSHda jismoniy shaxslar daromadini deklaratsiyalash jarayonida soliq stavkalarini qo'llashda deklaratsiya topshiruvchilar to'rtta toifaga ajratiladi:

- ☐ yolg'iz (uylanmagan yoki oilali bo'lmaganlar);
- ☐ oilali birgalikda (oilaviy daromaddan);
- ☐ oilali yakka holda (alohida daromdlari bo'yicha);
- ☐ oila boshlig'i (boshqa daromad oluvchilar oilada bo'lmaganda).

AQSHda jismoniy shaxslar daromadini hisoblash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Jami daromad - ish haqi, qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromad, stipendiya, renta to'lovlari, ko'chmas mulk ajratmalari.

2. Aniqlangan daromad - jismoniy shaxslarga berilgan imtiyozlar, ishlab-chiqarish yoki savdo imtiyozlari, qimmatli qog'ozlar savdosidan olingan daromad, avans to'lovlari, pensiya ajratmalari, ishsizlik ajratmalari.

3. Soliqqa tortilmaydigan daromad - daromad solig'ini hisoblashda ijtimoiy ta'minot xarajatlari, tabiiy ofatlardan yo'qotishlar (agar daromadning 10 foizidan oshsagina hisobga olinadi), tibbiyot maqsadida qilingan xarajatlar (aniqlangan daromadning 7,5 foizigacha), tajriba xarajatlari, malaka oshirish xarajatlari, xizmat safarlari xarajatlari. Ushbu xarajatlar daromad solig'ini hisoblashda daromaddan chegirib tashlanadi (ushbu imtiyozlar yalpi daromadning 50 foizigacha bo'lishi mumkin).

4. Soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor - AQSH qonunchiligida nazarda tutilgan standart chegirma deb ataluvchi imtiyozga yaqindir. Ravishda chegirma soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor bilan baravar stavda qo'llanilib kelinadi. U qat'i belgilab qo'yilgari summada, masalan, 5,5 ming dollar bilan (yolg'iz soliq to'lovchilar uchun), 11 ming dollar bilan (er-xotinlar uchun) va 2 ming dollar bilan (bir uy xo'jaligidagi har bir shaxs uchun) ifodalanadi. Masalan, to'rt kishidan iborat bir oila - 8 ming dollar standart chegirmaga ega. Bu xarajatlarni jami daromaddan chiqarib tashlashga ruxsat etiladi (tibbiy xizmat va dori-dammon sotib olish xarajatlari; stomatologiya xizmatlariga haq to'lash; ipoteka krediti bo'yicha to'lanadigan foizlar va shu kabilar).

Mentaliteti jihatidan bizga yaqin bo'lgan va Osiyoning eng rivojlangan mamlakati hisoblangan Yaponiyada jismoniy shaxslar

daromadlarini deklaratsiyalash tartibining o'ziga xos xususiyati o'z vaqtida vijdonan to'liq hisob-kitoblar bilan deklaratsiyalarini taqdim etgan shaxslarga, o'z vaqtida taqdim etganligi uchun turli xil imtiyozlar beriladi. Bu "ko'k" deklaratsiyalar berish tartibi deyiladi va bu soliq to'lovchilarni "ko'k" deklaratsiyali shaxslar deb ataladi. "Ko'k" deklaratsiyali soliq to'lovchilar uchun ko'plab imtiyozlar mavjud, ulardan asosiylari quyidagilar:

1) Oila a'zolari uchun mukofotlarga (oila biznesida) chegirma. Ishchilar orasida oila a'zolari bor shaxslar sof foydadan belgilangan miqdorda mukofotlar ajratishlari mumkin. Bunday holda ular bu mukofot summasini soliq idoralarga ma'lum qilishi kerak va mukofotlar shu summa doirasida zaruriy xarajatlarga sifatida chegiriladi.

2) "Ko'k" deklaratsiyali soliq to'lovchilar uchun maxsus chegirma. Yillik daromadlarni deklaratsiyalashda umumiy daromad summasidan quyidagi 15 turdagi chegirmalar ajratilib, soliqqa tortiladigan daromadning umumiy summasi hisoblanadi.

- 1) Ko'rilgan turli xil zararlar uchun chegirma.
- 2) Tibbiy xarajatlarga chegirma.
- 3) Ijtimoiy sug'urta uchun badallarga chegirma.
- 4) Kichik korxonalar uchun o'zaro yordam fondiga chegirma.
- 5) Hayotni sug'urta qilish badallari bo'yicha chegirma.
- 6) Mulkni sug'urta qilish badallari bo'yicha chegirma.
- 7) Hayriya badallari uchun chegirma beriladi.
- 8) Nogironlar uchun beriladigan chegirma.
- 9) Keksalik chegrimesi.
- 10) Bevalar uchun chegirma.
- 11) Ishlovchi talabalar uchun chegirma.
- 12) Turmush o'rtog'i (soliq to'lovchining qaramog'ida bo'lgan shaxslar) uchun chegirma.
- 13) Soliq to'lovchining qaramog'ida bo'lgan turmush o'rtog'i uchun maxsus chegirma.
- 14) Soliq to'lovchining qaramog'ida bo'lgan shaxslar uchun chegirma.

15) Asosiy chegirma.

Yaponiyada shaxsiy daromad solig'i stavkasi 55,97 foizni tashkil etadi. Yaponiyada shaxsiy daromad solig'i stavkasi 2004 yildan 2021 yilgacha o'rtacha 52,12 foizni tashkil etdi va 2021 yilda 55,97 foizni tashkil etdi. Shuningdek, 2005 yilda rekord darajadagi eng past ko'rsatkich 50,00 foizni tashkil etdi. Yaponiyada shaxsiy daromad solig'i stavkasi jismoniy shaxslardan olinadigan soliq bo'lib, mehnat, pensiya, foizlar va dividendlar kabi turli daromad manbalariga o'rnatiladi. Biz foydalanadigan mezon jismoniy shaxslar uchun eng yuqori marjinal soliq stavkasini nazarda tutadi. Shaxsiy daromad solig'i stavkasidan tushadigan daromadlar Yaponiya hukumati uchun muhim daromad manbai hisoblanadi [8].

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
2. У.Петти (1623 -1687). Главный его труд – «Трактат о налогах и сборах» (1662), Keynes Dj. M. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. - M.: Ekopov
3. Пансков В.Г. Налоги и налогообложение в Российской Федерации. – М., 2006.;
4. Soliqlar va soliqqa tortish A.V.Vahobov, A.S.Jo'rayev. Toshkent. 2009-yil
5. Пепеляев С. Г. Основы налогового права. М.: 1995, 24 с.
6. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. –T.: "Adolat", 2020. <https://lex.uz>.
7. F.Sh.Shamsutdinov, Sh.F.Shamsutdinova. Chet mamlakatlar soliq tizimi. (Darslik). —T.: «Fan va texnologiya», 2011, 508 bet. ISBN 978-9943-10-553-9
8. Seminar on Tax Administration 8-22 february 2010. Tokyo. JICA. 23 p
9. <https://taxsummaries.pwc.com/japan/individual/taxes-on-personal-income> ma'lumotlari asosida tayyorlandi
10. Baratova, D., & Olmosova, M. (2024). O'zbekistonda aholi mol-mulkini sug'urtalashning hozirgi holati, muammolar va rivojlantirish istiqbollari. Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 94–97. [https://doi.org/10.55439/INS/vol1\\_iss7/135](https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss7/135)
11. Valiyeva S.X. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili, YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. 2024-yil, may. № 5-son. 220-226 b. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1871>
12. Жумаев, Ш. (2024). Ўзбекистонда республикасида солиқ тўловчиларга хизмат кўрсатиш тизимини янада такомиллаштиришга масалалари. Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 68–69. [https://doi.org/10.55439/INS/vol1\\_iss7/127..](https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss7/127..)

1-jadval

Yaponiyada jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari [9]

| Soliq solinadigan daromad (JPY) |            | Soliq stavkasi (%) | Chegirma  | 1-ustun bo'yicha soliq (JPY) |
|---------------------------------|------------|--------------------|-----------|------------------------------|
| Yuqorida (1-ustun)              | Tugamagan  |                    |           |                              |
| 0                               | 1 950 000  | 5                  | 0         | 0                            |
| 1 950 000                       | 3 300 000  | 10                 | 97 500    | 97 500                       |
| 3 300 000                       | 6 950 000  | 20                 | 427 500   | 232 500                      |
| 6 950 000                       | 9 000 000  | 23                 | 636 000   | 962 500                      |
| 9 000 000                       | 18 000 000 | 33                 | 1 536 000 | 1 434 000                    |
| 18 000 000                      | 40 000 000 | 40                 | 2 796 000 | 4 404 000                    |
| 40 000 000                      |            | 45                 | 4 796 000 | 13 204 000                   |

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 5%, 10 %, 20 %, 23 %, 33 %, 40 %, 45 % stavkalarda undiriladi. Ushbu soliqni undirishdagi Yaponiyaning ilg'or jihati shundaki, daromad solig'ini hisoblash qulay hamda soddalashtirilgan. Jadvalning oxirgi satridagi chegirma summalar soliq solinadigan daromadga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri stavkani qo'llash imkoniyatini beradi. [10].

Biz yuqorida ko'rib chiqqan davlatlar soliq tizimida jismoniy shaxslar daromad solig'ining bazasini aniqlash tartiblari anchagina murakkab va serqirra hususiyatlarga ega ekanligining guvohi bo'ldik. Biroq ba'zi jihatlari bizning soliq tizimimizga o'xshash tartibda shakllangan bo'lsab ba'zi taraflari tubdan farq qilar ekan. [11,12].

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining budget daromadlari tarkibida yetakchi o'rin egallashi bir qator sabablarga bog'liqdir. Bularning ayrimlari quyidagilardan iborat:

- ☐ jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bevosita daromaddan olinadigan soliq bo'lib, soliq solinadigan daromadning aniq hisob-kitobi deklaratsiyalash orqali amalga oshiriladi;
- ☐ jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliqqa tortishning klassik tamoyillariga mos keladi;
- ☐ jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq investitsiyalarga mo'ljallanadigan moliyaviy resurslar hajmiga ta'sir etmaydi;
- ☐ ko'pchilik rivojlangan xorijiy mamlakatlarning budget daromadlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ulushining ortishi, aholi daromadlarining, ya'ni soliqqa tortiladigan daromadning oshishiga bevosita bog'liq bo'ladi va boshqalar.